

## Bitiruvchilar uchun mehnat yarmarkasi

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)

Amudaryo tumanida kasb-hunar kollejlari bitirgan yoshlar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Joriy yilda tumandagi mavjud kasb-hunar kollejlari tamomlagan 2 ming 463 nafar o'g'il-qiz uch tomonlama imzolangan shartnomalar asosida ishga qabul qilinmoqda. Tuman hokimligi, xotin-qizlar qo'mitasi, bandlikka ko'maklashuvchi markaz, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuman kengashi tomonidan tashkil etilgan ushbu mehnat yarmarkasiga 22 korxonalar, tashkilot hamda fermer xo'jaliklari tomonidan 131 bo'sh ish o'rni taklif etildi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish, sanoat, tadbirkorlik yo'nalishlaridagi bo'sh ish joylariga yoshlar katta qiziqish bildirdi. Yarmarka davomida 97 nafar yigit-qiz o'zlarini qiziqtirgan korxonalar va tashkilotlarga ishga joylashish uchun yo'llanma oldi. - Qipchoq agrobiznes kasb-hunar kollejni tugatgandim, - deydi Nazira Jabborbergenova. - Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga qaratilayotgan alohida e'tibor o'z kelajagimizga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlamoqda. Bugungi mehnat yarmarkasida ko'plab tengdoshlarim ishli bo'ldi. Men ipak tola ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Aziya silk" qo'shma korxonasiga ishga joylashishga qaror qildim. **O'ZA, A.Ortiqboyev**

22.06.2011 12:16 da elon qilingan, marta korib chiqildi